

**DINIY-MA'NAVIY ME'YORLAR VA SHAXS MA'NAVIYATI
ALOQADORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING BA'ZI BIR USLUBIY
MASALALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10357113>

Sultonov Muhammad Yoqub o'g'li

JDFU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Bugungi kunda muqaddas islom diniga yurtboshimiz va xalqimiz tomonidan yuksak e'tibor qaratilib kelinmoqda. Islom dini va uning qadryatlarini yanada mustahkamlash, muqaddas dinimiz va uning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini oshirish, yurtimizda sog'lom e'tiqodni shakllantirish va uning yoshlar ongiga singdirish, ilm-fan rivojida islom qadryatlarining o'rni va ahamiyatini yoritish, muqaddas dinimiz islomda milliy va umuminsoniy qadryatlarimizning aks e'tishi, shaxs ma'naviyatining shakllanishi tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifasi qilib belgilangan.

Kalit so'zlar

Iymon, diyonat, poklik, so'fiylik, oriyat, hayo, taqvo, ehson, mehmonnavoz, komil inson, nafs

Annotatsiya

Segodnya soyuzennaya religiya islam vysoko senitsya nashim Prezidentom i narodom. Dalneyshee ukreplenie islama i yego sennostey, povyshenie roli nashey soyuzennoy religii i yego duxovnoy jizni, formirovaniye zdorovoy veroy v nashey strane i privitiye yey v umax molodyx lyudey, podcherkivaniye roli i vajnosti islamskix ucheniy v razvoite nauki Otrajeniye nashix natsionalnyx i obshchelovecheskix sennostey v islame, formirovaniye duxovnogo obraza lichnosti opredelyaetsya kak osnovnaya sel i zadacha issledovaniya.

Key words

faith, religion, purity, Sufism, oriyat, modesty, piety, donation, hospitality, perfect person, lust

Annotation

Today, the holy religion of Islam is highly valued by our President and people. To further strengthen Islam and its values, to increase the role of our sacred religion and its spiritual life, to form a healthy faith in our country and inculcate it in the minds of young people, to highlight the role and importance of Islamic teachings in the development of science. the reflection of our national and universal values in Islam, the formation of the spiritual image of the individual is defined as the main goal and task of research.

Ключевые слова

вера, религия, чистота, суфизм, орият, скромность, благочестие, пожерование, гостеприимство, идеальный человек, похоть

Islom dini mintaqamiz xalqlari hayotiga kirib kelishi, uning qadriyatlarini odamlar ongi va shuuri, turmush tarzidan o'rin olishi bilan shaxs ma'naviy qiyofasi shakllanishi va yuksalishida yangi bosqichni boshlab berdi. Chunki "din o'z mazmun-mohiyati bilan azaldan jamiyat taraqqiyotiga, kishilarning tafakkuri va ma'naviyatiga, shu jamiyatga xolisona xizmat qiladigan ma'naviy komil insonlarni tarbiyalashdek sharaflilik ishga xizmat qilib kelgan"¹. Haqiqatdan ham, islom dinining xalqimiz ma'naviyati va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shib kelayotganligini ko'pchilik tadqiqotchilar e'tirof etmoqdalar.

Insonning chin ma'nodagi insonligi- uning iymoni, diyonati, mehr-oqibati, pokligi va haloligi, kamtarligi va boshqalar bilan o'lchanadi. Bu umumiy tarzda insoniylik tushunchasi bilan ifodalanadi.

Insoniylik esa faqat iymonli insonlardagina bo'ladi. Bu o'rinda hamma kishilar uchun umumiy tarzda tegishli bo'lgan masalalar ustida baholi qudrat fikr yuritamiz. Har birimiz iymon tushunchasining mohiyatini to'g'ri anglab, tushunib olsak, iymonni izohlovchisi bo'lgan diyonat, vijdonlilik, insof, mehr-oqibat, sahovat, adolatlilik, poklik va halollik, kamtarlik va boshqa ma'naviylik fazilatlarining ham mohiyatini bilib olamiz. Faqat iymonli kishilargina poklik va halollik, diyonat, ezgulik, mehr-oqibat, sahovat, muruvvat yo'lida bo'ladilar. Shuning uchun iymon tushunchasini, uning mohiyatini keng qamrovli asosda bayon qilishni maqsadga muvofiq deb bildik. Iymon arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi ishonch demakdir. U inson ruhiy olamining botiniy tomonini tashkil etadi.

Iymon shaxsning o'z e'tiqodiga tayangan holda boshqalarning niyati, qilmish-qidirmishiga, o'zining ishlariga, hatolariga munosabat bildirishdir. Iymon hayotda to'g'ri yo'l topishning mezoni hisoblanadi.

Iymonli kishilar Allohdan qo'rqish, bandadan uyalish nima ekanligini chuqur idrok etganlar. Allohni bir, Payg'ambarimizni (sallallohu alayhi vasallam) uning elchisi deb bilish-iymonning bosh belgisi hisoblanadi. Iymonli bo'lgan kishilar butun hayotlarida, ishlarida, faoliyatlarida, uyda,

ko'chada birovga, o'z oilasiga munosabatlarida hamisha to'g'ri va halol yo'l tutishga intiladilar. Muomala va munosabatlarida g'araz bo'lmaydi., ta'madan va xaromdan hazar qiladilar. Har ishlarida faqat bu dunyoni emas, oxiratni ham

¹ Uvatov U. Iymon nuri. – T.: "Yozuvchi", 1996. 4-bet.

o'ylab ish tutadilar. Barcha amallari va hatti- harakatlarini shunga bo'ysundirishga harakat qiladilar.

Ma'naviy-ahloqiy fazilat sifatida esa iymon faqat odamzotgagina xos ruhiy hodisa jumlasiga kiradi. Inson, odamzotdan tashqari hech bir mahluqotda iymonning o'rni-tagi ham yo'q. Binobarin, odamzod jamiki boshqa jonzotlardan biron bir narsaga ishonib, uni muqaddas deb bilishi, ya'ni iymon keltirishi bilan ajralib turadi. Iymon kishi ma'naviyatining, ahloqining o'q ildizi, poydevori, negizidir. Iymondan mahrum kimsaning aqli nechog'li o'tkir, irodasi naqadar cho'ng bo'lmasin va shular tufayli o'zligidan qanchalik mag'rurlanmasin, u chinakam insonlar qatoriga hech qachon

kiritilmagan, kiritilmaydi ham. Zero, iymonsiz odam na Allohdan qo'rqadi va na bandalaridan uyaladi. U o'z nafsining itoatkor quli bo'lib, har qanday razolat va pastkashliklardan qaytmaydi. Alloh hammamizni shundan asrasin. Buning uchun iymon yo'lini tutishimiz lozim.

Iymonning mohiyati azaldan olam va odamzotning kelib chiqishi, odamning olamdagi o'rni qanday, inson umrining ma'nosi nimada, zoti bashar nimaga da'vat etilgan, u nimalarga qodiru, nimalarga noqodir singari muammolar tashkil etib keladi.

Hamma dinlarda iymonga alohida e'tibor beriladi. Iymon barcha dinlarning ustuni sanaladi. Iymonning diniy talqini ham inson faoliyatini oqilona boshqarish, jamiyat hayotida tinchlik, adolat, insonparvarlik, halollik singari fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan. Chunonchi, zardushtiylik iymoni uch tayanchga: niyat-fikrning sofligiga, so'zning sobitligiga, amallarning insoniyligiga suyanadi. Iymonli kishi o'g'rilik va talonchilikdan, o'zgalarning mol-mulkiga ko'z olaytirishdan, birovning haqqiga hiyonat qilishdan, boshqacha aytganda, o'zligiga, ya'ni o'z iymoniga xilof, zid ish qilishdan o'zini tiya biladigan komil insondir. Iymonli odamga yuqorida qayd etilgan hodisalarni qilma, gunoh bo'ladi deb targ'ib qilishning hojati yo'q.

Abu Homid Muhammad G'azzoliyning ko'rsatishicha, iymon "...payg'ambarlar keltirgan hukmlarni til bilan aytib, dil bilan tasdiqlab, a'zolari bilan amal qilmoqlikdan iborat... Ammo iymon bilan jannatga erishgunicha banda ro'parasida qanchadan-qancha baland, mashaqqatli dovonlar bor. Ushbu dovonlardan oshib o'tmay Alloh va'da qilgan jannatga tushmoq dushvor. O'sha dovonlarning eng avvali va eng xatarlisi "Iymon tog'i" dir. Chunki, har bir banda

umri poyoniga iymonni shayton dastidan salomat yetkaza olurmi yo yo'q, hamma gap ana shunda"¹.

Iymon tog'i inson qalbida. Bu tog' insonning foniy dunyoda odamlar bilan halol, yuksak ahloq, odob negizida muomala qila bilishligi, munosabatda bo'lishi, hayotda o'z o'rnini topishi, mavjud sharoitlar va imkoniyatlarga ko'nikishi, ular ichida chora-tadbir bilan yo'l topa bilishini ifodalaydi. Umuman, iymonlilik inson Allohning nomini diliga jo qilib, muqaddas kitoblarda aytilgan ahloqiy, huquqiy qoidalarga, hayot tajribasi saboqlariga tayanib hayotda o'z o'rnini topa bilishi, halol mehnat qilib, boshqalar bilan adolatli munosabatda bo'la olishidir.

Bahovuddin Naqshbandning "Dilingda xudoning nomi bo'lsin, qo'ling ish bilan band bo'lsin", degan fikrlarida iymonning diniy va dunyoviy jihatlari uyg'un holda olingan.

Iymon tushunchasining dunyoviy va diniy mohiyatini anglab olish uchun komil musulmonlikning shartlari to'g'risida aytilgan quyidagi fikrlar hamma uchun ibratdir. Bu o'rinda Muhammad payg'ambarimiz (s.a.v.)ning so'zlari diqqatga sazovor: "Musulmoni komil bo'lishingiz, bir-birlaringizga muhabbat qo'yishingiz shart. O'rtangizda muhabbat paydo bo'lishi uchun salomni oshkora beringiz va bir-biringizga jahl qilishdan

saqlaningiz, jahl tarashlaguvchidir, ya'ni u sochni tarashlamaydi, balki dilni tarashlaydi... Rost gapiringlar, chunki rostgo'ylik yaxshilikka boshlaydi... Bir-biringizga aka-uka bo'linglar, uch kundan ortiq gina saqlamanglar... Har bir shirin so'zingiz ham bir sadaqadir... Betoblarni borib ko'rish ham Allohning rahmatiga erishishdir"¹. Bular inson ma'naviy faoliyatiga yo'nalish, iymoniga mazmun beradigan hukmlardir.

Mashhur shoir So'fi Olloyor iymonning inson amaliyotiga ta'sirini quyidagi misralarda bayon etgan:

Amalning naf'i ham iymon bilandir,

Qachon yolg'iz amal qilg'on bilandir.

Na'uzu billoh, imonsiz kishini

Qabul etmas xudoyim bir ishini²

Iymon shaxs ma'naviy-ruhiy olamida qaysi yo'nalishda qaror topmasin, uning sharti asosan bittadir. Ya'ni iymonli odamning so'zi bilan ishi bir bo'ladi. Bunday inson har qanday sharoitda o'z so'zi va ahdnomasida turadi. Agar shunday qilmasa, vijdon azobida qoladi va o'zini-o'zi sira kechirmaydi. Demak, vijdon,

¹ G'azzoliy. "Oxiratnoma". Buxoro, 1998, 8-bet.

¹ Husayn Voiz Koshifiy. "Futuvvatnoma". Toshkent, 1994, 11-bet

² So'fi Olloyor. "Sabotul ojizaiy". Toshkent, "Cho'lpon", 1991, 13-bet.

halollik, poklik, rostgo'ylik, insof-diyonat, sahovat, muruvvat, adolat, xalq, vatan ishqi bilan yashash faqat iymoni butun odamlargagina xos fazilatdir.

Diniy iymon bilan birga inson tajribasi, bilimi tufayli yuzaga kelgan dunyoviy iymon ham bor. Dunyoviy iymon mazmunini olam va odam haqidagi so'nggi ikki yarim ming yil mobaynida kashf etilgan ilmiy-falsafiy bilimlar, mehnat ahlining to'plagan hayot tajribasi, ijtimoiy xotirasi, turli-tuman udumlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar va ular zamiridagi bilimlar tashkil etadi. Dunyoviy iymonning o'zagi odamiylikdan iborat bo'lib, uning tarkibiga kiradigan unsurlar, qirralar, jihatlar g'oyat turli-tumandir. Odamiylik deganda xalqimiz uzoq tarixi davomida turli sinovlardan o'tib sayqal topib kelayotgan va faqatgina ijobiy fazilatlar tarzida e'zozlanadigan ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni tushunsak bo'ladi.

Iymonli bo'lishning mohiyatini hayo, andisha, shirin so'zlilik, halollik va adolatlilik, or-nomuslilik, vijdonlilik, vafodorlik, mehnatsevarlik, sahovatlilik, mehr-muhabbatlilik, hayr-ehsonlilik kabi ahloqiy qadriyatlardan iborat ekanini ko'ramiz. Demak, iymon komil insonning yetuk ma'naviy fazilatlarini majmuidir.

Iymonsizlik esa vijdotsizlik, e'tiqodsizlik, tuban yo'llarga yurish, ahloq, odob, insonparvarlik qoida va talablariga rioya qilmaslikdir.

Iymonli odam komil inson bo'ladi. Iymon komil insonlikni ifodalovchi barcha ma'naviy fazilatlarini o'z ichiga oladi. Zamondoshimiz bo'lmish odamlarni, iymonli quyidagicha tavsiflashimiz mumkin: e'tiqodli, o'zining aniq maslagiga ega, vatanparvar, insonparvar, taqvodor, hamiyatli, oriyatli, or-nomusli, sharm-hayoli, andishali, insofli, kamtarin, halol va pok, to'g'ri so'z kabi fazilatlar sohibidir.

Demak, insoniylikning muhim shartlari - diyonatlilik, mehr-shafqatlilik, poklik va halollilikni iymon tushunchasi o'z ichiga oladi. Chunki, faqat iymon sohibi bo'lgan insondagina diyonat, mehr-shafqat, poklik va halollik bo'ladi.

Endi shaxs ma'naviy qiyofasidagi iymonlilikning ba'zi tushunchalarini izohlashga o'tamiz. Ularning mazmuni, mohiyati va amaliy ahamiyatini chuqur anglab olmoqlik va o'zimizning kundalik hatti-harakatimizda amal qilmoqlik bizni har damda yuksak insoniylikka, komillikka tomon eltadi, demakki iymonimiz mustahkamlana boradi.

Iymonning boshi - taqvo. Taqvo - har noto'g'ri ishga qo'l urishda - Allohdan qo'rqish, yomon ishlardan saqlanish. Allohdan qo'rquvchi banda oilada, jamiyatda halol yashaydi, haromga qo'l urmaydi, oxiratda javob berishini o'ylab, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, to'g'ri bo'ladi, poraxo'rlik qilmaydi, qasamxo'r bo'lmaydi, birovni aldamaydi, yolg'on

gapirmaydi, kishilarga, vatanga hiyonat qilmaydi va boshqalar.

Sharm-hayo ham iymonlilik belgisi sanaladi. Sharm – har bir odamning nojo'ya, yomon hatti-harakatlardan o'zini tiya olish, uyalish hissi. Hadisi shariflarda aytilishicha, odam eng avvalo, o'zidan uyalishi kerak. Nojo'ya, yomon qilmishi, hatti-harakati uchun o'zidan uyalgan odam o'zgaga ham nojo'ya hatti-harakatni ravo ko'rmaydi. O'zidan uyalmagan odamda sharm bo'lmaydi.

Demak, sharm odam o'z nojo'ya hatti-harakati uchun o'z vijdoni, diyonati oldida javob berish hissi, desak bo'ladi.

Hayo – bu o'zbekcha uyat demakdir. Hayosiz, behayo deyilganida, uyatsiz ish qilganda hijolat chekmaydigan, odob-ahloqsiz kishi tushuniladi. Hayo erkak kishiga nisbatan ayollarda tabiatan ko'proq bo'ladi. Erkak kishi bemalol aytadigan ba'zi so'zlarni, hatti-harakatlarni ayollar turli andisha va uyalish tufayli ayta olmaydilar, hayo ularga yo'l bermaydi. Hayoli bo'lish, bu faqat uyatli so'zni aytmalikda emas. U bundan ham ko'ra kengroq ma'no va mazmunga ega. Sharm-hayoli bo'lish insonni hayvon singari tubanlashib ketishdan saqlaydi. O'z nojo'ya hatti-harakatidan uyalish hissi faqat odamlargagina xos xususiyat.

Farzandlarni sharm-hayoli qilib tarbiyalash oiladan boshlanadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, oila-ma'naviyat qo'rg'oni.¹ U milliy tarbiyamizning muhim jihatini tashkil etadi.

Iymonli bo'lishning belgilaridan biri or-nomus hisoblanadi. Or qilish odamning o'ziga nomunosib yoki ep ko'rmagan ishdan, narsadan hijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg'usidir. Or yana biror narsadan hazar qilishni ham bildiradi.

Oriyat - or-nomusdan tashqari izzat va nafs, qadr tuyg'usidir. Odatda oriyatli odamlar o'zlari va oilalarining, tug'ishganlarining izzat-nafsi, qadr-qimmatini, hurmatini yuksak tutib, boshqalar tomonidan toptalishi, haqorat qilinishi va hurmatsizlanishiga loqaydlarcha qarab turmaydi, turolmaydi.

Nomus – bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari kishining o'z mavqeini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, hijolat tortish tuyg'usini, oila va ajdodlar sha'niga dog' tushirmaslik ma'nosini ifodalaydi.

Iymonli bo'lishning yana bir belgisi odamning diyonatli, vijdonli bo'lishidir. "Vijdon pokligi va bedorligi, - deb ta'kidlaydi Prezident I.Karimov, - asrlar, zamonlar osha inson ma'naviyatining tayanch ustunlaridan bo'lib kelmoqda. Jamiyat hayotida adolat va haqiqat, mehr-shafqat, insofu diyonat kabi tushunchalarni qaror toptirishda aynan mana shu omilning o'rni va ta'siri beqiyosdir".¹

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008, 56- bet.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008y. 27 bet.

Vijdoni uyg' oq odam yon-atrofida bo'layotgan voqealarga, yordam va ko'makka muhtoj insonlarning muammolariga, adolatning toptalishiga befarq qaray olmaydi.

Vijdon – insonning o'z faoliyatini, qilgan ishlari va belgilagan maqsadlarini ichki ruhiy tahlil eta olish imkoniyatidir. Iymon – inson

qalbidagi vijdon tarozisidir. Vijdon asosida har bir kishi o'z qilmishlarigagina emas, balki boshqalarning faoliyatiga, jamiyatdagi voqea-hodisalarga, ijtimoiy vaziyatga baho beradi.

Mehr-shafqatlilik ham iymon mezonlaridan biridir. Yuqoridagi kabi mehr-shafqat ham xalqimizga xos xususiyat sanaladi. Mehr-shafqat odatda yetim-yesir, qarovsiz qolgan qariyalar, g'ariblarga, nogironlarga nisbatan moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish tuyg'usi, desak bo'ladi. Bizning Mustaqil Respublikamiz rahbariyati ota-bobolarimiz udumini davom ettirib, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ota-onasiz, qarovsiz qolgan bolalar va yolg'iz qariyalar, shuningdek nogironlarga nisbatan yuksak mehr- shafqatlilik namunasini ko'rsatayotir.

Qur'oni karim, hadislar va shariat ko'rsatmalari inson ma'naviy-ma'rifiy kamolotining asosi bo'lgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o'z ichiga olgan. Sirasini aytganda, hadislar ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid bo'lgan fikrlarning mukammal to'plamidir. Qur'oni karim, hadislarini, shariat ko'rsatmalarini o'rganar ekanmiz, ularda axloqiy kamolot, halollik va poklik, iymon va vijdon bilan bog'liq bo'lgan birorta ham muhim masala e'tibordan chetda qolmaganini ko'ramiz. Ayniqsa islom

harom va halol masalasiga musulmonlar e'tiborini qaratadi. Shariatda Olloh tomonidan qilinishiga ruxsat etilgan amallar, ishlar halol deyiladi.

Harom esa aksincha, qilinishiga ruxsat etilmagan ishlar va amallardir. Odatda, xalqimiz halol va haromni yeyiladigan va ichiladigan narsalarga ishlatib kelgan. Shariatda ijozat etilgan hamma narsalar, yeyiladigan oziq-ovqatlar, qilinadigan ishlar halol deb hisoblangan.

Ijozat etilmagan narsalar, ishlar va amallar esa haromdir. Olloh harom etilgan ishlarni qiluvchilarga bu dunyoda yoki qiyomat kunida jazosini albatta berishi aytilgan. Halol qilingan narsalar va ishlar ko'pchilikka ma'lum, u haqda ko'p eshitganmiz.

Harom qilingan ishlarni eslatib o'tish va eslatib turish joizdir. Bulardan ayrimlarga quyidagilar: sog' bo'la turib ishsiz yurish, zinokorlik, ota-onaga oq bo'lish, savdo-sotiqda g'irromlik qilish, birovning xaqqiga, omonatiga xiyonat qilish, qasamxo'rlik, sudxo'rlik, o'g'irlik, qaroqchilik, mayxurlik, g'iybat, tuhmat,

bo'hton, josuslik, qotillik, poraxo'rlik va boshqalar kiradi. Xullas, harom inson va jamiyatga zarar keltiradigan ish va amallardan iborat.

Islomda ota-onaga mehr-muhabbat, g'amxo'rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida e'tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo'l urish, insofli-diyonatli, vijdonli bo'lish, mehr-shafqatlilik, to'g'rilik, rostguylik, sofdil bo'lish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish g'oyalari ilgari surilgan.

«Qur'on»da har bir mo'min-musulmon bajarishi zarur bo'lgan yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlardir, deb tushintiriladi. Chunki, Islom dinining asosiy maqsadi ham yomonlikning oldini olish, kishilarga yomonlikning xunuk oqibatlarini tushintirish hamda ularni doimo to'g'ri yo'lda yurishga chaqirishdan iboratdir.

«Qur'on»da sahovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilgan. Unda ehson mazmuni keng qamrovda olinadi. Unga muomala ham, inson amalga oshiradigan barcha yaxshi ishlar ham kiritiladi. Ehson – insonning tabiiy vazifasi bo'lishi kerakligi talqin etiladi. Kim birovga ehson qilsa, uning foydasi o'sha kimsaning o'ziga qaytishi, chunki birovga yaxshilik qilgan kishi o'zida ruhiy qanoat his etishi, boshqalar tomonidan hurmat- ehtiroimga sazovor bo'lish ta'kidlanadi.

«Qur'on»da olijanoblik- yaxshilikning o'zi uchun emas, boshqalar uchun zarurligini anglash, istashdir. Demak, olijanoblik ruhiy holat bo'lib, inson kamolotini ko'rsatuvchi hislatdir. Shirinsuxanlik – to'g'ri so'z va muomala madaniyati rioya qilish qonun-qoidalari keltiriladi, shirinsuxanlik insonning muomala madaniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi, obro'yini ortiradi, hurmatga sazovar qiladi.

«Qur'on»da insonning ma'naviy pok bo'lishi, havoiy nafsdan saqlanishi masalalariga ham e'tibor berilgan. Shu bilan bir qatorda insonning axloqiy kamolotga yetkazishga zid xususiyatlar: manmanlik, aroqxo'rlik va qimorbozlik, yolg'onchilik, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, ochko'zlik kabilar xususida ham ibratli fikrlar bildirilgan.

«Qur'on»da yolg'onchilik va uning turlari, zararli oqibatlari haqida ham gapiriladi. Yolg'onchilikning eng xavflisi xiyonat deyiladi. Chunki xiyonat jamiyat uchun ham, odamlar uchun ham zarar keltirib, uni xarob etadi. Yolg'onchilikning yana bir turi va'daga vafo qilmaslik deb ko'rsatiladi. Irodasiz, birovga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan, ishonchsiz kishilar va'dasiga vafo qilmaslik bayon etiladi. «Hadisda ham va'daga vafo qilmaslik munofiqlik, deyiladi, munofiqlik belgisi 3 ta: gapirsa-yolg'on gapiradi, va'da bersa-vafo qilmaydi va omonatga xiyonat qiladi».

Islomning muqaddas kitobida ma'naviy kamolotga to'sqinlik qiluvchi salbiy xislatlardan biri g'azab, hasad kabi xislatlar qoralanadi, bekorchi gaplardan yiroq yurish, mayda va behuda gaplarga vaqt ketkazmaslik, mol-dunyoga ruju qo'yimaslik ta'kidlanadi.

Tasavvuf - so'fiylik insonni o'rganar ekan, avvalo, kishining ko'ngliga, diliga tayanadi, ko'ngilni, qalbni tarbiyalashga, ko'ngil kishisini voyaga yetkazishga intiladi, chunki Oллоh faqat kishining pokiza qalbidagina jilva qiladi. Tasavvufda insondagi jamiki xudbinliklar, illatlar, razolat dunyosiga hirs qo'yish jism ehtiyoji va nafs ta'masidan kelib chiqadi, deb o'rgatiladi. Komil inson bo'lish uchun avvalo, jism va nafs ehtiyoji va ta'masini yengish kerak. Dunyoga, boylikka mehr qo'yish kishini nafsiga qul qilib qo'yadi. Darvesh, so'fiy nafsni rad etadi.

Shuni iftixor bilan qayd etishimiz lozimki, tasavvuf ta'limoti taraqqiyotida Turkiston farzandlarining xizmati beqiyos bo'lgan. Xoja hakim at-Termiziy, Shayx Abu Mansur al-Maturidiy as-Samarqandiy, Xoja Abduxoliq Fijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Shayx Najmiddin Kubro, Xoja Ali Romitaniy, Abu Ali al-Farmadiy, Yusuf Hamadoni, Bahouddin Naqshband kabi siymolar ilohiy ma'rifat yo'lining rahnamolari bo'ldilar. Ular yaratgan ta'limot va ilgari surgan ma'naviy-axloqiy g'oyalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. "O'zlikni anglash, eng avvalo, o'tmishni o'rganishdan, tarixni bilishga ehtiyoj sezishdan boshlanadi, - deb to'g'ri ta'kidlaydi siyosatshunos olim N.Jo'raev.¹

Darhaqiqat o'zini angelayotgan, o'zini tushunayotgan har bir odam qanday oilada dunyoga kelgani, o'z ajdodlari kimlar bo'lgani, otabobolarini nimalar bilan shug'ullangani va qanday umr kechirishganini bilib olishga intiladi. Ularning fazilatlari va meroslari bilan faxrlanib yashaydi". Shu ma'noda xalqimizning axloqiy va diniy merosida ulkan iz qoldirgan tasavvufni o'rganish, ilmiy-nazariy tahlil qilish, bugungi kunda uni yoshlar ongi va qalbiga yetkazish va singdirish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, jamiyat tarixiy taraqqiyotida insonga xos bo'lgan tasavvufiy qadriyatlar mavhum tushunchalar yig'indisidan iborat bo'lib qolmasdan, balki ular ma'lum bir ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlarning taqqozosi maxsuli sifatida, aniq voqelik va hayot falsafasi bilan uzviy bog'liqlikda vujudga kelgan va rivojlanib borgan. Tarix falsafasining eng muhim va mazmunli saxifalaridan birini tasavvufiy meros tashkil etadi. Tasavvuf o'tmishda ham, hozirda ham olimlarimiz diqqatini o'ziga

¹ Jo'raev.N. Tarix falsafasi. T.; Ma'naviyat,1999,19 bet.

tortib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Tasavvuf muqaddas dinimiz Islom ta'limotining tarkibiy qismi. Uni esa Islom ma'naviy merosidan ayri holda o'rganish mumkin emas. U tabiat, ijtimoiy muhit, insonning turli munosabatlarini o'rganish, mavjud xodisani bilish va uni o'zgartirishga bo'lgan uzluksiz intilish jarayonida sayqallanib, xalqning ma'naviy fazilatlarini boyitishga olib keladi. Tasavvuf ma'lum ma'naviy-ruxiy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiysiyosiy muhit ta'sirida yuzaga kelgan. Ushbu tadqiqot jarayonida, ana shu tarixiy xaqiqatni yoritish, tasavvufiy merosimizni kishilar ongi va shuuriga yetkazish, shu asnoda ularni fikrlashga, o'tmishni idrok qilib, aql yo'rig'i bilan tanlash kabi falsafiy-diniy muammolarni hal etish vazifasi oldinga qo'yildi. Bu muammoning yechimini topishda buyuk mutasavvuflarning boy ma'naviy merosi asos qilib olindi.

Ayniqsa, O'rta Osiyo mutasavvuflarining diniy-axloqiy merosi negizida inson va uning mohiyati, insonga xos bo'lgan qadr-qimmat, nafs, adolat, sadoqat, burch, vafo va ezgulikka yo'llovchi qadriyatlarning mavjud ekanligi hech kimga sir emas.

Islom ma'naviyati va ezgu g'oyalarining mazmuni Qur'oni karim va hadisi shariflarda, ularga asoslangan islom falsafasi, tasavvuf, odob-axloq masalalariga bag'ishlangan dunyoviy va diniy olimlarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu bilimlarni targ'ib qilish islom ma'rifati doirasiga kiradi.

Inson ilmi va imoni, dunyoqarashi va idroki uning xulqida o'ziga xos tarzda aks etib, ma'naviyati axloqiy fazilatlar sifatida zohir bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shunday xulosalar chiqarish mumkin:

Birinchidan, muayyan shaxslarda islomiy qadriyatlarning bajarilishi, avvalo, o'z ruhini shod etish taskin topish, tabiiy ehtiyoj, deb qaraladi;

ikkinchidan, inson (shaxs)ning diniy qadriyatlarni bajarishi Qur'onda va Hadislarida musulmonlarga buyurilgan ko'rsatmalar deb tushuniladi;

uchinchidan, islomiy qadriyatlarni bajaruvchi inson (shaxs) o'z diniy ehtiyojini qondirish, ruhiyatini tinchitishdan tashqari, o'zidan oldin o'tgan ota-onasi, yaqinlari, ajdodlarining ruhlarini yo'qlab, turli xayr-ehsonlar qilishni tabiiy hol deb biladi;

to'rtinchidan, aksariyat halkimiz, shu jumladan yoshlar ham islomiy qadriyatlar bilan milliy qadriyatlarni uyg'unlikda ko'rib, ularni ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi, deb tushunadilar.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatimizga aylangan islom dini g'oyalari va ko'rsatmalari millatimizning tabiiy-tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, kelajagi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlarini, an'analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan uzviy bog'langan. U milliy qadriyatlarimiz bilan

xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviy aloqada namoyon bo'ldi, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qildi. Bu tizimda tabiiy-tarixiy birlikni ta'minlovchi qadriyatlar – yagona e'tiqodlilik, qarindoshlik, madaniy-ma'naviy yaqinlik, o'tmish va ma'naviy meros, ona yurt tuyg'usi va boshqalar barqaror hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008y. 27 bet.
2. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – Toshkent: O'zbekiston, 1997.
3. Jo'raev.N. Tarix falsafasi. T.; Ma'naviyat,1999,19 bet.
4. Uvatov U. Iymon nuri. – T.: "Yozuvchi", 1996. 4-bet.
5. G'azzoliy. "Oxiratnoma". Buxoro, 1998, 8-bet.
6. Husayn Voiz Koshifiy. "Futuvvatnoma". Toshkent, 1994, 11-bet
7. So'fi Olloyor. "Sabotul ojjaiy". Toshkent, "Cho'lpon", 1991, 13-bet.
8. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekis-ton Respublikasi Qonuni (yangi tahrir). – Toshkent: Adolat, 1998. – 32 b.
9. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. M.Xayrullaev tahriri ostida. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
10. 3.2. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. A.Jalolov tahriri ostida. – Toshkent: Yozuvchi, 2001. – 64 b.
11. 3.3. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjiması.- Toshkent: Sharq, 2001. - 383 b.
12. Diniy ekstremizm va fundamentalizm: tarixi, mohiyati va bugungi xavfi. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. – 95 b